

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA
TARBIYALANUVCHILARNING SENSMOTORIKASINI RIVOJLANTIRISHDA
INTEGRASIYALASHGAN MASHG'ULOTLARDAN FOYDALANISHNING
PEDAGOGIK ASOSLARI**

**Murtazoyeva Shaxodat Mirzayevna
Ashurova Mubashir Raxmatovna**

Buxoro viloyat Kogon shahar 18-davlat maktabgacha ta'lism tashkiloti tarbiyachilari

Annotatsiya: *maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarning ta'lim-tarbiya jarayonida sensomotorikasini rivojlanirishda integrasiyon ta'lidan foydalanishning pedagogik asoslarini o'rghanish*

Kalit so'zlar: *pedagogika, sensomotorika, tarbiyalanuvchi, ta'lim-tarbiya, integrasiya, didaktika, pedagog, tarbiyachi*

Annotation: *Studying the pedagogical foundations of using integration education in the development of sensorimotor skills of preschool children in the educational process*

Key words: *pedagogy, sensorimotor, student, education, integration, didactics, pedagogue, educator*

Аннотация: *Изучение педагогических основ использования интеграционного образования в развитии сенсомоторных навыков дошкольников в образовательном процессе*

Ключевые слова: *педагогика, сенсомоторный, воспитанник, образование, интеграция, дидактика, педагог, воспитатель*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lism tizimini yanada takomil lashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2707-soni qarori ushbu tizim faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga hizmat qilishi shubhasiz.

Maktabgacha ta'lism tashkilotining pedagogi bolalarda sensomotorikasini tarkib toptirishga kirishar ekan, avvalo, uning mazmuni va mohiyatini teran anglashi hamda bolalar bilan olib borila digan ta'limi va tarbiyaviy ishlarda unga amal qilishi lozim. Albatta, mazkur masalaga e'tibor kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgani yo'q. Ortga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tgan 25 yil lik mustaqillik davrida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda ta'lismni tubdan isloq qilishning muhim bosqichlari amalga oshiri lib, mohiyatan hech qaysi bir davlatda mavjud bo'lmagan uzlusiz ta'lism tizimi shakllanti rildi. Ya'ni, yosh avlodning maktabgacha ta'lism tashkilotlaridan to'oliy ta'limgacha bo'lgan uzlusiz bilim olishlari, kasb o'rghanishi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'naliishiga aylandi. Bu borada, ayniqsa, maktabgacha ta'lism tashkilotlari tizimini rivojlanirish, bolalarni maktabgacha ta'lism muassasalariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'lism sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb qaraldi.

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari, birinchidan, maktab yoshiga qadar bo‘lgan bola larning umumiy savodini chiqarish, bola larda Vatanni sevish, u bilan g‘ururlanish hissini uyg‘otish, Konstitusiyani o‘rgatish, dunyoqarashini kengaytirish imkonini bera yotgan bo‘lsa, ikkinchidan, yosh bolali onalarning mehnat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqini ro‘yobga chiqarishga ham xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jamiyatimizda sodir bo‘layotgan taraqqiyot qonuniylatlari ichida intensivlashtirish, globallashuv hamda integratsiyalashuv jarayonlariga mos mazmun va metodika tanlash o‘ta dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, maktab gacha ta’lim yoshidagi bolalarning ta’lim tarbiyasiga zamonaviy tendensiyalar bilan bir qatorda xalqimizning ta’limiy tajribalari va qadriyatlaridan kelib chiqqan holda ularning sensor tarbiyasiga integrativ yondashish bugungi kun ning muhim masalasi ta’bir joiz bo‘lsa, ijtimoiy talabi hisoblanadi. Chunki bugungi kunning maktabgacha ta’lim yoshidagi bolasiga bevosita taqdim etilayotgan axborotlarning ko‘لامи ularni integrativ mazmun va metodika asosida o‘qitish ehtiyojlarini keltirib chiqarmoqda.

Integratsiyaning asosiy kategoriyalari umumiy aloqa, o‘zaro ta’sir, yaxlitlik, tizim lilikdan tashkil topib, mohiyati jihatidan falsafiy kategoriyalar bilan mos keladi va ta’limda muhim metodologik va didaktik ahamiyat kasb etadi. Integratsiyalashgan ta’lim shaxsni intellektual va madaniy rivojlantirishning bosh omili sifatida eng avvalo borliqning holatlari, o‘zgarish jarayonlari va boshqa hodisalar bilan aloqadorlik hollarini yaxlit holda bolalar ongiga yetkazishdir.

Akademik I.P.Pavlov ta’kidlaganidek, ta’lim va tarbiya jarayoni insoniyat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan turli aloqa, fikr, tafakkur va bilimlardan iborat. Uning fikricha fanlar o‘rtasidagi o‘zaro uzviylik tabiat va jamiyat voqealari o‘rtasidagi mavjud uzviy likning obektiv in’ikosidir. Binobarin, o‘zaro uzviylik tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning umumiy va muhim xususiyati sanaladi. Har bir narsa, voqeanning mohiyatini bilish uning boshqa narsa va hodisalar bilan bo‘lgan munosa batini bilishga bog‘liq. Ta’lim jarayonida turli xil mantiqiy tizimlar orqali tarbiyachi va u bilan birlgilikda bolalar o‘z bilim, qobiliyat va ko‘nikmalarini deduksiya, induksiya, sintez, umumlashtirish, konkretlashti rish, taqqoslash shaklida ifodalaydilar.

Integratsiya – bu mashg‘ulotlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni mashg‘ulotlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir biriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishida namoyon etadi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarni sensor tarbiyalashda integratsiyalashgan ta’limdan foydalanishning ayrim pedagogik shart-sharoitlari sifatida quyidagilarni;

1. Tarbiyachining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi. a) tarbiyachilarning integratsiyalashgan ta’lim to‘g‘risida bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaganligi. b) integratsiyalashgan ta’limni amaliyotga tadbiq eta olish mahoratining mavjudligi.
2. Integratsiyalashgan ta’limni tashkil etish uchun didaktik, metodik va texnik ta’mi notning mavjudligi.
3. Integratsiyalashgan ta’limga bolalarni motivatsion tayyorgarligini ta’minalash.

4. Integratsiyalashgan ta’limni tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribalari dan foydalanib borish.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o’tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Masalan, Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarining «Haqqoniyat» deb atalgan bobida rostlik va to‘g‘ri so‘zlikni insonning eng yuqori sifatlaridan biri deb hisoblaydi va bu to‘g‘risida shunday yozadi: «Haqqoniyat deb ishda to‘g‘rilik, so‘zda rost likka aytilar. Inson bo‘stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo‘li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o‘lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifat larning onasi haqqoniyatdir...». U inson odobidagi hayo va iffatni yuqori baholaydi. Hayo deganda ishda, so‘zda odobga rioxva qilmoqni tushunadi, uni insoniylikning muhim belgisi, deb biladi. Avloniyning ushbu fikrlarida integratsion yondoshuvni ko‘rishimiz mumkin. YA’ni inson ishida ham so‘zida ham to‘g‘riso‘zlikka amal qilishi lozimligi xususida to‘xtalib o‘tadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya ishlarining zamonaviy sharoitda amalga oshirish, uni rivojlantirib borish tendensiyalari bolalarni shaxs sifatida shakllanish jarayoniga kompleks tarzda yondashishni taqozo etadi. Bu borada mashg‘ulotlarni interatsiyalashgan ta’lim prinsiplari asosida tashkil etish muhim didaktik talab hisoblanadi. Aslida maktabgacha ta’limda ta’lim va tarbiyani integra siyalash muammosi didaktikada yangilik emas. Biroq zamonaviy ehtiyoj va talablar, shuning dek har bir jamiyatning o‘ziga xos xususiyatla riga ko‘ra muttasil yangilanib, takomillashib borishi lozim. Shuning uchun ham integrativ ta’lim muammosi zamonaviy nazariya va ama liyot uchun ham muhimdir.

Pedagog olima R.Mavlonovaning integrativ ta’limning sinflarga bo‘linishi yuzasidan olib borgan tadqiqotlaridan kelib chiqib biz izlanishlarimiz doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarni sensomotorikasini tarbiyalashda integratsion mashg‘ulotlarni quyidagi guruhlarga bo‘lib chiqdik: 1. Polipredmet integratsiyalash. Fundamental tizimli kurslar qatorini almashtirish. Masalan: turli guruhlarda nutq o‘stirish, badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish rasm, qurish-yasash, aplikatsiya, atrof-olam bilan tanishtirish, tabiat, musiqa mashg‘ulotlarini bir mashg‘ulot doirasiga kiritish.

2. Chegaradosh mashg‘ulotlar asosida yangi tabiiy-ilmiy mashg‘ulotlarning yuzaga kelishi. Masalan: nutq o‘stirish, atrof-olam bilan tanishtirish, qurish-yasash, loy ishi, rasm, tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlari asosida ekologiya kursining yuzaga kelishi.

3. Maktabgacha ta’lim muassasalari, mahalla va oila hamkorligiga asoslangan integratsiyalashgan faoliyatni yuzaga kelti rish.

4. Maktabgacha ta’lim o‘quv dasturla rida global ta’lim masalalarini o‘z ichiga olgan modellarni qo‘llash yo‘li bilan muvofiqlashtirish. Bunda bola faqatgina mashg‘ulotlar jarayonidagi ma’lumotlar bilan cheklanibgina qolmasdan, balki, hayotiy, dunyoviy tushunchalarga ham ega bo‘ladi. Ya’ni, global ta’lim bolalarni intellektual, xususiy, jismoniy, axloqiy va ma’naviy dunyosiga e’tibor bergan holda butunligicha ta’lim tarbiya berishdir. Maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbi yachi faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, integra siyalashgan mashg‘ulotlarni tashkil etish bola larda ma’naviy-axloqiy sifatlarni yaxlit xolda shakllantirishga sharoit yaratadi.

Tarbiyachi o‘z ijodkorligi orqali dasturda berilgan mashg‘ulotlarni integratsiyalash imkoniyatlarini to‘g‘ri aniqlangan holda amalga oshirsagina, ijobiy va ta’sirchan natijalarga erisha oladi. Masalan, «Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan Davlat talablari» da katta guruh tarbiyalanuvchilarini badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish va badiiy estetik rivojlantirish maqsadida, badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish mashg‘ulotini musiqa mashg‘uloti, rasm mashg‘uloti, loy ishi mashg‘uloti, applikatsiya mashg‘uloti, qurish yasash mashg‘ulotlari bilan integratsiyalash mumkin deya ko‘rsatib o‘tilgan.

Integratsiyalashgan mashg‘ulotlarni amaliyotda qo‘llash tarbiyachilarga ancha murakkablik tug‘diradi, chunki bir vaqtning o‘zida tarbi yachi bolalarni turli mashg‘ulotlar o‘rtasidagi aloqalarni bilishlari uchun ularning idrok etish faoliyatlarini qanday tashkil etish kerakligini, mashg‘ulotlarga nisbatan ularda qanday qilib qiziqish uyg‘otish mumkin ekan ligini aniqlashi lozim. Shu bilan birga bir mashg‘ulotni boshqa mashg‘ulotlar bilan integratsiyalagan xolda tashkil etishi uchun, mavzulararo bog‘liqlikni topishi va yangi mavzuni bolalarga tushuntirishda boshqa mashg‘ulotlar imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalana olishi lozim bo‘ladi. Bu kabi muammolarni bartaraf etish natijasida ta’lim samaradorligi, shu jumladan sensor tarbiya samaradorligi oshadi.

Sensor ta’lim - bu bolaning ob’ektning xususiyatlari haqidagi g’oyalarini rivojlantirish. Bunday ta’lim uning atrofidagi dunyoni o’rganishni rag‘batlantirish orqali sodir bo‘ladi: u qanchalik ko‘p turli xil narsalarni ko‘radi va unga tegsa, qiziqarli tovushlarni eshitadi, u dunyoni turli sezgilar bilan his qilishni va idrok qilishni faolroq o’rganadi.

Sensor tarbiyasi natijasida bolada atrofdagi olamdagи narsalarning shakli, rangi, hajmi, kosmosdagi holati, hidi, materiali, ta’mi, miqdori va boshqa xossalarni haqida tasavvur hosil qilishi kerak. Ularning yordami bilan sensorli standartlar shakllanadi - kattalar har kuni foydalanadigan ob’ektlarning umumiyligini qabul qilingan misollari, hatto buni sezmasdan ham

Tadqiqotchilar quyidagi bosqichlarni aniqlaydilar:

Sensorli pre-standartlar bosqichi (6 oy - 2,5 yil).

Bu vaqtida bola ob’ektlarning assosiy shakllari, ranglari, fazoviy tushunchalari va boshqa oddiy xususiyatlari bilan tanishadi.

Taqqoslash orqali oldingi standartlar bilan tanishish bosqichi (3-7 yil)

Bu bosqichda bola narsalarning xususiyatlarini solishtirishni boshlaydi va umumiyligini farqlarni aniqlashni o’rganadi. Misol uchun, chaqaloq o’t bilan taqqoslash orqali ob’ektning yashil ekanligini tushunadi: to’p yashil, o’t kabi.

Ob’ektlarning sifatlarini umume’tirof etilgan standartlar bilan taqqoslash bosqichi (6-7 yoshdan)

Spektrning ettita rangi va ularning yorug‘lik va to’yinganlik soyalari hissiy rang standartlari sifatida harakat qila boshlaydi. Shakl me’yorlari sifatida - geometrik figuralar, o’lchamlar - o’lchovlarning metrik tizimi, eshitish idrokida - tovush munosabatlari, ona tilining fonemalari, musiqiy notalar, ta’m - to’rtta asosiy ta’m va ularning kombinatsiyasi, hid bilishda - yuqori darajada ixtisoslashgan bo’lim. hidlardan shirin va achchiq, yangi, og’ir. Bularning barchasi dunyoni yaxshiroq navigatsiya qilishga yordam beradi.

Sensor ta’limi:

- kelajakda axborotni to‘g‘ri qayta ishlash uchun uni o‘qishga yordam beradi;

- kuzatish va diqqatni rivojlantiradi;
- hissiy me'yorlarni tushunish orqali bolaning tashqi dunyo haqidagi g'oyalarini tartibga soladi;
- yaxshiroq o'qishga yordam beradi;
- tasavvurni rivojlanirish uchun asos bo'lib, bolaga sub'ekt-kognitiv faoliyatning yangi usullarini o'zlashtirish imkoniyatini beradi;
- hissiy bilimdan ratsional bilinga, idrokdan tafakkurga o'tish uchun asos yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi o'z vaqtida hissiy idrok etish - o'sib borayotgan shaxsnинг kognitiv rivojlanishining asosiy sharti, cheksiz o'zgaruvchan muhitda to'g'ri va tezkor yo'nalish, hissiy sezgirlikni shakllantirish, atrofdagi dunyoning go'zalligi va uyg'unligini idrok etish qobiliyati.

Bolaning hissiy rivojlanishidagi bo'shliqlarni keyingi davrda qoplash qiyin va ba'zan imkonsizdir. Maktab yoshida bu bo'shliqlar rivojlanishda kechikishlar shaklida namoyon bo'lishi mumkin, bu esa fan asoslari bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishni qiyinlashtiradi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshda bola quyidagi tushunchalarni egallashi kerak:

rang haqida (kamalakning ranglari);

hajmi (katta, kichik, o'rta va boshqalar);

shakli (doira, kvadrat, to'rtburchak, tasvirlar, uchburchak);

ta'mi (shirin, achchiq, sho'r, nordon);

hid;

vazn (og'ir, engil);

kosmosdagi holati (o'ng, chap, pastda, yuqorida, yaqin, uzoq va boshqalar);

vaqt bo'yicha orientatsiya (ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi va soati);

ob'ektlarning ovozi (baland, jim, baland, past);

nutqni eshitish (unlilar, undoshlar, qattiq, yumshoq);

material (yumshoq, qattiq, yumshoq, silliq va boshqalar).

XULOSA

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni sensor tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari ichida jarayonni muntazamligi hamda mantiqiy rivojlanib borish prinsipiiga amal qilishi pirovord natijada uning ijobiy yakunlanishini kafolatlaydi. Bunday ijobiy natijaga erishishda ta'lim jarayonini integratsiyalashtirish muammosi yuzasidan tarbiyachilarni malakasini oshirish kurslarida seminarlar tashkil etish, maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni sensor tarbiyasida ta'limni integratsiyalash bo'yicha horijiy davlatlar tajribalarini o'rganib borish, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni sensomotorikasini tarbiyashni integratsiyalashgan ta'lim orqali amalga oshirishga oid ilg'or tajribalar umumlashtirilib metodik qo'llanmalar yaratish va tashviqot ishlarini yo'lga qo'yish, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbyachisi «ustoz-shogird» tartibi asosida ish yuritib, ilg'or tajri balarni o'rganish va o'z faoliyatida qo'llash malakalariga ega bo'lishlarini ta'minlash muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. Zunnunov A., Sulaymonov A. Ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini integratsiyalash omillari. - T.: 2004.
2. Djurayev R.X., Turdiqulov E.O. va boshqalar. Integratsiyalashgan ta’lim nazariyasi va amaliyoti. –T.: 2009.
3. Mavlonova R. Rahmonqulova N. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. - T.: «Ilm-Ziyo», 2009.
4. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: TDPU, Nizomiy, 2003. 2. Avliyoqulov N. Zamoniaviy o‘qitish texnologiyalari.-T., 2001.
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi, 2000.